



“USTOZ-SHOGIRD” AN’ANASI ASOSIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Shukurova L.

Farg‘ona davlat universiteti Tasviriy san‘at kafedrasida o‘qituvchisi, s.f.b.f.d (PhD).

Tayanch so‘zlar: “Ustoz-shogird” an’anasi, ijodiy ustaxona, o‘quv jarayoni, talaba, faoliyat.

Ключевые слова: традиция «Мастер-ученик», творческая мастерская, учебный процесс, ученик, деятельность.

Key words: “Master-Apprentice” tradition, creative workshop, educational process, student, activity.

Kirish. Yangilanayotgan O‘zbekistonning bugungi kunida yoshlarni kamolotga intilishi, ma’naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini o‘stirishda o‘lkan tadbirlar olib borilmoqda. O‘zbek xalqning o‘tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo‘lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an’analarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an’ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Inson o‘zi qiziqib tanlagan sohaning ustasi bo‘lsa, ongli hayot kechirish uchun zarur moddiy istaklar (rizq-nasiba butunligi, dasturxon to‘kinligi, qulay shart-sharoit) va ma’naviy ehtiyoj (poklanish, hayotdan mazmun va halovat topish) uyg‘unligiga erishadi. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar xalqimizning ezgu intilishlari negizi – Barkamol avlod orzusini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbek xalqining o‘tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo‘lib qolgan madaniy, manaviy, moddiy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an’analarini ham kiritish joiz. “Ustoz-shogird” an’anasi azal-azaldan nodir qadriyat sifatida mamlakatni yuksaltirishda alohida o‘ringa ega bo‘lgan asriy an’anadir. Zero, “Ustoz-shogird” an’anasi turkiy xalqlar qadimiy madaniyati sifatida jahon taraqqiyotida o‘zining salmoqli o‘rniga ega. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So‘g‘diyona, Marokant,



Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo‘lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalardek jasur o‘g‘lonlar dunyoga keldilar. Ular o‘z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma‘nan kurashdilar. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o‘z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e‘tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar[1:104].

Qadimda milliy an‘ana bo‘yicha shogirdlikning o‘ziga xos odob-axloq qoidalari bo‘lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin. Avvalo:

- o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya‘ni o‘z kasbini sevish;
- o‘z kasbiga e‘tiqod qo‘yish va unga ishonish;
- ustoz oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish;
- ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish;
- eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik;
- barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish;
- ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning

asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin:

- rostgo‘ylik
- vafodorlik
- mas‘uliyatlilik
- nasihatni quloqqa olish
- ozor bermaslik
- sir saqlash.

Shogirdlikning eng yaxshi hislati nima deb so‘rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar, hamkasb do‘stlarini xushnud etish deb javob bergin» [2:813].

Natijalar va muhokama. Tarixiy sharoitlarining o‘zgarishi borasida to‘plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o‘zgarib bormoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida “Ustoz-shogird” an‘analarini yanada rivojlantirish, uni ta‘limiy qadriyat sifatida tan olishning asosiy vazifalardan biri Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishga asos bo‘ladigan yangi ta‘lim tizimining tashkil etilishidir.

Yangi O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida milliy qadriyatimiz sifatida qadimdan rivojlanib kelgan “Ustoz-shogird” an‘anasi asosida bo‘lajak

mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sohasini rivojlantirish yo'lida barcha pedagog-xodimlar oz texnologiyasiga ega. Tajribaga tayangan holda "Ustoz-shogird" an'anasi bakalavriat bosqichi va magistratura mutaxassisliklarida soha rivojini ta'minlanishida quyidagi tamoyillarga asosanlanib faoliyat yuritmoqda:

- Ixtiyoriylik tamoyili
- Hamkorlik tamoyili
- Tizimlilik tamoyili
- Munosiblik tamoyili
- Maqsadni aniqligi
- Natijaviylik tamoyili

"Ustoz-shogird" an'analari tajribasi oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalarini rivojlanib, shakllanib boruvchi an'ana.

- "Ustoz-shogird" tizimi katta miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish, kasbga tayyorgarlik va ishlab chiqarish munosabatlarini o'rnatish qobiliyatini shakllantirish jarayoni

- "Ustoz-shogird" tizimi oliy o'quv yurtlarida bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy va professional yordam va qo'llab-quvvatlash maktabi.

- "Ustoz-shogird" tizimi oliy o'quv yurtlarida bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda boshqaruvdir[3:33].

Tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda "Ustoz-shogird" tizimi talabalarning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishiga imkoniyat yaratadi.

Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.



Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki oliy ta‘lim tizimini xususan, tasviriy san‘at ta‘lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. Modern – yangilangan, zamonaviy, tekor o‘shish) o‘quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Pedagogik jarayonda to‘plangan tajribalar asosida ko‘plab usul va texnologiyalarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi, ushbu metodlardan biri ijodiy to‘garak ustaxonasida ustoz shogird an‘anasi asosida ishlash mustaqil ta‘lim, ijodiy to‘garak mashg‘ulotlarida foydalanish tashkil etadi.

Ijodiy ustaxonada ustoz bilan birgalikda ishlash mashg‘ulotlari talabalar ijodiy fikrlashlari va faoliyatlarining rivojlanishlari uchun samarali imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy ustaxona pedagog uchun talabalardagi tabiiy qobiliyatlarni amalga oshirish va uni har xil ijodiy faoliyatlarda qo‘llashga yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni cheksiz qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalarga - shaxsiyatga mo‘ljallangan; talabaga har tomonlama hurmat va muhabbat bilan yondashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash asosiga qurilgan - yakkama-yakka ta‘lim texnologiyasi; talabalar bilan birga maqsadni belgilab olish, ular bilan birga ijod qilish, ularga do‘st sifatida qarash, ularning qiziqishlariga, ijobiy hissiyotlarining hamohangligini yaratishga qaratilgan - pedagogik hamkorlik texnologiyasini; ijodkorlik imkoniyatlarning rivojlanishi darajasidagi - tabaqalashtirilgan ta‘lim; muammoli holatlarni yaratish va talabalar uning yechimini mustaqil ravishda topishlarini faollashtirishga qaratilgan - muammoli ta‘lim; talabaning shaxsiyatini tarbiyalash, uning ilmiy tadqiqot, ijodiy faoliyati qobiliyatlari imkoniyatini loyihalashtirish usuli bo‘yicha xususiy texnologiyani qo‘llash kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni misol qilish mumkin [4:100].

Ijodiy to‘garak ustaxonasi metodiga asoslangan usul; quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi;

- talabaning ta‘lim jarayonida va hayotiy faoliyatida olgan bilim, ko‘nikma va mahoratlarini takomillashtirish;
- mustaqil ijodiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- tasviriy san‘atning barcha tur va janrlariga qiziqishlarini oshirish, har xil materiallar texnikalarni o‘zlashtirish xohishlarini rivojlantirish;
- olgan bilimlarini amalda kundalik hayotda qo‘llash, shaxsiyatini va atrof borliq haqidagi fikrlarini tubdan o‘zgartirish;
- inson hayoti tabiat, san‘at, kundalik turmush bilan uyg‘unligini idrok etish haqidagi ma‘naviy savodxonligini oshirish;
- milliy qadriyatlarni va urf odatlarni sevish, hurmat qilish hissini tarbiyalash;
- jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishda, o‘z ijodiy mehnat mahsullarining jamiyatga nechog‘lik kerakligini his qilish, o‘tmishdagi ajdodlarimiz me‘rosiga hurmat



nazari bilan qarash va kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash; Ijodiy ustaxonada nimani amalga oshirish kerakligini asosan shogirdning o'zi tanlaydi, ustoz faqat uning ishidagi xatolarini tuzatib, qanday tasvirlash vositalaridan foydalanish mumkinligi haqida maslahatlar beradi.

Ustoz va shogirdning birgalikdagi harakati asosida ijodiy faoliyat yaratiladi. Shogird tasviriy san'atning qaysi turi yoki janrida ishni boshlashni xohlasa, ustoz yordamida o'zining faoliyatini rejalashtiradi: eskizlar bajaradi, ishlash uchun material tanlaydi, ish joyini tayyorlaydi keyin o'ylagan rejasini amalga oshirishga kirishadi. Ijodiy ustaxonadagi har bir shogird – bu o'z asarini tomoshabinlar hukmiga qo'yishga tayyorlanayotgan rassom. To'garakda ijodiy ustaxona usulida bajarilgan har bir ish, o'z holicha bir loyiha, tugallangan buyum bu konkurs, olimpiada yoki ko'rgazmaga qo'yiladigan tayyor mahsulotdir.

Ijodiy ustaxonada ishlashni rejalashtirish to'garakdagi, asosiy e'tibor har bir talabanning hohishi va qiziqishlari asosida har bir talaba shaxsiy xususiyatini hisobga olib tuziladi. Ammo pedagog nafaqat talabanning shu paytgacha o'zlashtirgan bilimlari, ko'nikma va malakalarini hisobga olishi, balki o'sish nuqtasini ham belgilab borishi, kelgusidagi kamolotga erishish imkoniyatlari, ularning yangi tajribalarni egallashlarida yordamlashishi, yangi texnologiyalar va texnikalar bilan tanishtirib borishlari kerak bo'ladi[5:64].

Ijodiy ustaxonada mashg'ulotda qatnashayotgan talabalarning o'zi ham doimo yangi texnologiyalarni izlashadi, yangi tajribani o'zlashtirishga, atrofdagilar bilan o'rtoqlashishga harakat qilishadi. Mashg'ulotlar jarayonida ijodiy ustaxona usulidagi ishlash metodikasining psixologik jihatlariga e'tibor berish juda muhim. Sir emaski tasviriy san'at bilan endi shug'ullanishni boshlagan talabalar o'ziga ishonmaslik, o'z ishini past baholash, men yaxshi chiza olmayman, chiroyli chiqara olmasamchi?, hech kimga yoqmasachi?, men umuman hech narsani eplay olmayman kabi cho'chish hissi yuqori bo'ladi.

To'garakdagi mashg'ulotlar jarayonida asta-sekin bu cho'chish hissi yo'qolib boradi, chunki tasviriy san'at mashg'ulotlarida bajargan ishlariga har doim ball qo'yib borilmaydi, tugallash uchun vaqtlar chegaralanmaydi. Oxirgi natijaga esa albatta erishiladi, ishni qaysi paytda to'xtatishni (ishini ko'rgazmaga qo'yadimi, kursga jo'natadimi yoki biron kishiga sovg'a qilishiga qarab) talabanning o'zi hal qiladi.

Talabalarni ko'rgazmalarga olib borish ham muhim o'rin egallaydi. Tadbirdan maqsad tasviriy san'ati turlari dunyoqarashlarini kengaytirish, san'at turlarini farqlay rassomlarning asarlari bilan tanishish orqali ijodiy qobiliyatlarini hamda bilim va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Bundan ko'rinib turibdiki, talabalarga aniq maqsad qo'yilsa, ularning ijodiy ishi natijasini ko'rsatish



imkoniyati yaratilsa, talabalardagi ijod qilish, yaratishga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Ijodiy ustaxona sharoitida birga ishlash barobarida ustozga nisbatan mehr va hurmat tuyg‘ularini oshganligi yaqqol seziladi.

Xulosa. Demak, kichik mutaxassislar tayyorlashda “Ustoz-shogird odobi” an’analaridan ta’lim-tarbiya jarayonida takomillashtirish va rivojlantirishda pedagoglar o‘rni va ahamiyati katta. Shuningdek, yosh avlod vakillari o‘tmishda yaratilgan merosni, asarlarni ko‘rib, ardoqlab, idrok qilib o‘zlashtirsalar, zamonaga munosib rassomlar bo‘lib yetishishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Султанов Х.Э., Анкабаев Р.Т., Хасанова Н.С., Чориева Н.Ш. Инновационные методы обучения на занятиях по изобразительному искусству. Актуальные вопросы современной педагогики. 2017. – С. 103-105.
2. Ne‘mat A.M., Ankabayev R.T. Methodological Principles of Training Fine Arts. Eastern European Scientific Journal, (6). 2018. – P. 812-814.
3. Ирбутаева М.Т., Махмудов М.Ж., & Махмудов М.Э. Живопись и гармония музыки. Ученый XXI века, 6-1(65), 2020. – С. 31-34.
4. Tursunmurotovich S.S. Importance of illustrations for perception of content of the book. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), 2020. – P. 98-101.
5. Байметов Б.Б., Собиров С.Т., & Исмаев У.Ш. Проблемы профессионально-педагогической подготовки учителей изобразительного искусства. Вестник науки, 1(7), 2019. – С. 63-66.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “Ustoz-shogird” an’anasi, qadimiy madaniyat, oliy o‘quv yurtlarida bolajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, tasviriy san’at o‘quv jarayoni, ijodiy ustaxona, ustoz-shogidning birgalikdagi faoliyati, talabalar ijodiy fikrlashlari va faoliyatlarining rivojlanishlari o‘rin olgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются традиция «Мастер-ученик», древняя культура, подготовка молодых специалистов к профессиональной деятельности в высших учебных заведениях, изобразительный художественный учебный процесс, творческая мастерская, совместная деятельность магистра-ученика, развитие творческого мышления студентов и деятельность.

SUMMARY

This article discusses the “Master-Apprentice” tradition, ancient culture, the preparation of young specialists for professional activities in higher educational institutions, the fine art educational process, a creative workshop, the joint activity of a master-apprentice, the development of creative thinking of students and activities.